“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=335

2025-yil
11-son
noyabr
ISSN 3093-8546



Sun'iy intellekt davrida huquq: imkoniyatlar va muammolar

Medetbayeva Aqsungul Sharapatdinovna,
Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi, Sud ekspertiza ilmiy-tadqiqot instituti
tayanch doktoranti
e-mail: aksumedetbaeva@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida huquqiy tizimda yuzaga kelayotgan yangi imkoniyatlar va murakkab muammolar keng qamrovli tahlil qilinadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida 2024–2025-yillarda sun’iy intellektni rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qilish organlarida AI texnologiyalarining joriy etilishi, ma’lumotlar infratuzilmasi va kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha belgilangan strategik vazifalar o‘rganiladi. Shuningdek, Xitoy, AQSh va Yevropa Ittifoqi kabi davlatlarning SI sohasidagi tartibga solish modellari qiyosiy tahlil qilinib, riskka asoslangan yondashuvning afzalliklari va cheklovlari ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada algoritmik xolislik, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, javobgarlikning uch tomonlama bo‘linishi, xavfli SI tizimlari ustidan inson nazorati kabi zamonaviy huquqiy dilemmalar tahlil qilinadi. Muallif innovatsiyalar va inson huquqlarini muvozanatlashtiruvchi barqaror huquqiy arxitektura zarurligini asoslaydi.

Калит сўзлар. sun’iy intellekt, huquqiy tartibga solish, riskka asoslangan yondashuv, algoritmik xolislik, ma’lumotlar xavfsizligi, shaxsiy huquqlar, davlat boshqaruvi, Xitoy AI siyosati

Аннотация. В статье проводится комплексный анализ возможностей и правовых вызовов, возникающих в связи с быстрым развитием технологий искусственного интеллекта. Особое внимание уделяется нормативным реформам, осуществляемым в Узбекистане в 2024–2025 годах, включая внедрение ИИ в государственное управление, деятельность правоохранительных органов, создание инфраструктуры данных и повышение кадрового потенциала. Рассматривается международный опыт регулирования (Китай, США, ЕС), сопоставляются различные модели управления рисками, включая подход ЕС в рамкахAIActи гибкая политика США. Автор детально анализирует вопросы алгоритмической предвзятости, защиты персональных данных, распределённой ответственности, требований прозрачности и необходимости сохранения человеческого контроля над высокорисковыми системами ИИ. Делается вывод о важности выработки устойчивой правовой модели, способной одновременно обеспечивать инновации и защиту прав человека.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Ключевые слова. искусственный интеллект, правовое регулирование, риск-ориентированный подход, алгоритмическая предвзятость, безопасность данных, права личности, государственное управление, политика Китая в сфере ИИ

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the legal opportunities and challenges shaped by the rapid development of artificial intelligence technologies. It examines the legislative reforms implemented in Uzbekistan during 2024–2025, including the integration of AI into public administration, law enforcement activities, data infrastructure development, and capacity-building initiatives. The study also reviews international regulatory models—particularly those of China, the United States, and the European Union—highlighting differences in risk-based approaches and governance philosophies. Key issues such as algorithmic bias, data protection, distributed liability, transparency requirements, and the necessity of maintaining human oversight over high-risk AI systems are critically assessed. The article concludes that a sustainable legal framework must balance technological innovation with the protection of human rights and fundamental freedoms.

Keywords. artificial intelligence, legal regulation, risk-based approach, algorithmic fairness, data protection, individual rights, public administration, China AI policy.

XXI asrning eng muhim texnologik yutuqlaridan biri – sun’iy intellekt (SI) insoniyatning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy hayotiga tubdan ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli algoritmlar, neyron tarmoqlar va katta ma’lumotlar tahlili endi nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtiradi, balki inson tafakkuri bilan bog‘liq murakkab qarorlarni ham mustaqil qabul qila oladigan tizimlarni yaratmoqda. Bunday sharoitda huquq tizimi uchun yangi bosqich boshlanmoqda: avvalgi yuridik normalar texnologiyalar sur’atiga moslashish ehtiyojiga duch kelmoqda, mavjud institutlar esa o‘zining samaradorligi va yetarliligini qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda.

Sun’iy intellektning huquqiy maydonga kirib kelishi ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: birinchidan, SI jamiyat va davlat boshqaruvida ulkan imkoniyatlar yaratib, inson kapitalini yengillashtiradi; ikkinchidan, u ilgari mavjud bo‘lmagan yangi xavflar, mas’uliyat masalalari va etik muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, SI yordamida sud qarorlarini tahlil qilish, jinoyatchilikni prognoz qilish yoki shaxslarni identifikatsiya qilish jarayonlari ancha tezlashadi, biroq aynan shu jarayonlarda shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi, algoritmlardagi xatoliklar va diskriminatsiya xavfi yanada kuchayadi.

Bugungi kunda turli davlatlar SI sohasini tartibga solish bo‘yicha o‘z yondashuvlarini ishlab chiqmoqda: Yevropa ittifoqi **“AI Act”** orqali xavf darajasiga asoslangan yondashuvni joriy qilsa, AQSh texnologiya kompaniyalarining o‘z-o‘zini tartibga solish mexanizmlariga urg‘u bermoqda. O‘zbekiston ham bu jarayondan chetda qolmayapti – elektron hukumat, raqamli sud tizimi, onlayn xizmatlar va ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishida yangi normativ asoslar shakllanmoqda.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Shu bois, sun’iy intellekt davrida huquq nafaqat texnologiya bilan bog‘liq masala, balki davlat boshqaruvi, inson huquqlari, iqtisodiy siyosat va adolat tizimi barqarorligining markaziy omiliga aylanib bormoqda. Mazkur mavzuni yoritishda SI texnologiyalarining imkoniyatlari bilan bir qatorda, ular olib keladigan xavflarni, huquqiy tartibga solish ehtiyojini, mas’uliyatning qay tarzda belgilanayotganini va etik normalarning qayta ko‘rib chiqilishi zarurligini chuqur o‘rganish muhimdir.

Shunday qilib, sun’iy intellekt davrida huquq – shunchaki texnologiyaning huquqqa ta’siri emas, balki kelajakning ijtimoiy-huquqiy arxitekturasini yaratish jarayonidir.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishiga aylandi. 2024–2025 yillarda qabul qilingan Prezident farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari va Oliy Majlis qarorlari sohani institutsional mustahkamlash, normativ-huquqiy asoslarni yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va kadrlar salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan yaxlit tizimni shakllantirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktabrdagi 189-farmoni mamlakatda SI texnologiyalarini jadallik bilan rivojlantirish va keng joriy etish bo‘yicha strategik vazifalarni belgilab berdi. Unga ko‘ra, 2026-yil oxirigacha davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy sohada kamida 100 ta SI loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan. 2030-yilga qadar esa sun’iy intellekt infratuzilmasini rivojlantirish uchun 1 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiya jalb etish ko‘zda tutilgan. Ta’lim tizimida SI bo‘yicha bilimlarni kengaytirish maqsadida 2026/2027 o‘quv yilidan boshlab maktab va oliy ta’lim dasturlariga maxsus mavzular kiritilishi belgilandi. Shu bilan birga, 2026-yilga qadar oliy ta’lim muassasalarida 15 ta sun’iy intellekt laboratoriyasini tashkil etish vazifasi qo‘yilgan.

Farmon institutsional islohotlarni ham nazarda tutadi: Raqamli texnologiyalar vazirligi huzurida Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha Maslahat kengashi tuziladi, shuningdek, SI bo‘yicha loyihalar, startaplar va ta’lim resurslarini yagona markaz sifatida birlashtiruvchi ai.gov.uz milliy portali ishga tushiriladi. Ilmiy muassasalar va startaplar uchun GPU-klasterlar hamda katta ma’lumotlar bazalaridan bepul yoki imtiyozli asosda foydalanish imkoniyatining yaratilishi texnologik tadqiqotlar rivojiga turtki bo‘ladi.

2026-yil 1-yanvardan boshlab sun’iy intellektni tartibga solishga oid yangi mexanizmlar joriy etiladi. Jumladan, SIni o‘z ichiga oluvchi har qanday normativ-huquqiy hujjat loyihasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi bilan majburiy tartibda kelishilishi shart bo‘ladi. Shuningdek, kriptoaktivlar, elektron tijorat, sug‘urta va qimmatli qog‘ozlar sohalariga SIni integratsiya qilishning tartib-qoidalari aynan ushbu agentlik tomonidan ishlab chiqiladi. Yoshlar uchun rag‘bat sifatida “Sun’iy intellekt sohasidagi eng yaxshi startap” Prezident sovrini joriy etiladi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha tizimli yondashuv 2024-yil 14-oktyabrdagi 358-sonli Prezident Qarori orqali yanada mustahkamlandi. Qaror bilan Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. U SIga doir huquqiy, texnik va ilmiy mexanizmlarni takomillashtirish, xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish,

ma’lumotlar infratuzilmasini yaratish, kadrlar tayyorlashni tizimli yo‘lga qo‘yish, shuningdek, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni joriy etishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi.

Ichki ishlar organlari faoliyatida SI texnologiyalarini qo‘llash ham davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. 2025-yil 30-apreldagi 155-sonli Prezident Qarori bilan Ichki ishlar organlari faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish va rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Konsepsiya jinoyatchilikni prognoz qilish, jamoat xavfsizligini ta’minlash, kompyuter nigohi, nutqni aniqlash, robototexnika tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etishni ko‘zda tutadi. Bu orqali huquqni muhofaza qiluvchi organlarda tezkorlik, aniqlik va xavfsizlik darajasi oshirilishi rejalashtirilmoqda.

Yana bir muhim hujjat – Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-iyuldagi 425-son qarori, SI sohasida 2025–2026-yillar uchun ustuvor amaliy loyihalarni belgiladi. Ularga videoma’lumotlarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish, bank sohasida shubhali operatsiyalarni aniqlash, savdo-ko‘ngilochar sohalarida tashrif buyuruvchilar faolligini monitoring qilish, AIStudy.uz platformasini yaratish kabi loyihalar kiradi. Qaror SI bo‘yicha xalqaro reytinglarda mamlakat o‘rnini yaxshilash va oliy ta’limda zamonaviy laboratoriyalarni tashkil etishni ham o‘z ichiga oladi.

Umuman olganda, mazkur hujjatlar O‘zbekistonda SIni rivojlantirishning huquqiy, infratuzilmaviy va ilmiy asoslarini yaratishga qaratilgan kompleks yondashuvni namoyon etadi. Ular SI imkoniyatlardan samarali foydalanish, ma’lumotlar xavfsizligi, algoritmik xolislik, mas’uliyat va etik me’yorlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, SI infratuzilmasini shakllantirish, xalqaro investorlarni jalb etish, innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, kadrlar salohiyatini oshirish orqali O‘zbekistonni SI sohasida mintaqaviy yetakchilardan biriga aylantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategiyaning asosini yaratadi.

Xorijiy tajribaga to‘xtaladigan bo‘lsak, Xitoy SI bo‘yicha eng qat’iy normativ tizim yaratgan davlatlardan biridir. 2025-yil 1-sentyabrdan boshlab Xitoyda sun’iy intellekt yordamida yaratilgan barcha kontentni majburiy tarzda belgilash (“AI labeling”) talabi kuchga kirdi. Yangi tartibga ko‘ra, matn, rasm, video, audio, hatto virtual sahnalar kabi generativ kontent foydalanuvchi tomonidan bir qarashda farqlanishi kerak. Kontentda ko‘rinadigan (“explicit”) belgilar, metadata yoki suv belgisi (“implicit”) orqali belgilash majburiy hisoblanadi.

Bu islohotning maqsadi yolg‘on axborot, soxta kontent va manipulatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik. Shuningdek, Xitoy hukumatining “AI Plus” strategiyasi doirasida generativ AI sohasida davlat nazorati kuchaytirildi. Bu tartiblar orqali Xitoy axborot makoni ustidan nazoratni mustahkamlamoqda va bir vaqtning o‘zida SI texnologiyalarining ijtimoiy xavflarini kamaytirishga intilmoqda. Shuningdek, AQSh sun’iy intellekt rivojida “bozorni haddan tashqari tartibga solmaslik” prinsipiga tayangan holda siyosat yuritmoqda. 2025-yil Parijda o‘tkazilgan AI sammitida AQSh vitse-prezidenti JD Vance Yevropaning qattiq tartibga solish siyosatini tanqid qildi va ortiqcha regulyatsiya innovatsiyani sekinlashtirishini ta’kidladi. Shuning uchun AQSh Parij deklaratsiyasini imzolamadi – bu deklaratsiya 60 dan ortiq davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan hujjat bo‘lib, AIni global xavfsiz boshqarish tamoyillarini

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

taklif etgan edi.

AQSh yondashuvi asosan texnologik kompaniyalar va startaplarga erkinlik berishga qaratilgan. Rivojlanish tezligini regulatorlar emas, balki bozor, raqobat va texnologik salohiyat belgilashiga urg‘u beriladi. Shu bois AQSh boshqa mintaqalarga qaraganda SI innovatsiyalarining eng yirik markaziga aylangan.

Sun’iy intellektning so‘nggi yillarda jadal rivojlanishi nafaqat iqtisodiyot va texnologiya sohalarida, balki huquqiy tizimda ham chuqur o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Shunga qaramay, hozirgi kunga kelib, sun’iy intellektning javobgarligini tartibga solishda to‘liq mukammal yechim hali yo‘q. Shu sababli riskka asoslangan tartibga solish modeli eng maqbul yondashuv sifatida e’tirof etilmoqda. Bu yondashuv sun’iy intellekt tizimlarini xavf darajasiga qarab to‘rt guruhga: minimal, o‘rtacha, yuqori va qabul qilib bo‘lmaydigan xavfga ajratadi. Aynan yuqori xavfli toifaga kiradigan tizimlar (masalan, sud qarorlarini tahlil qiluvchi, kredit reytingini baholovchi, tibbiy tashxis qo‘yuvchi yoki jamoat xavfsizligini nazorat qiluvchi SI) eng qat’iy nazorat ostida bo‘lishi shart.

Muammoning asosiy yechimi sifatida shaffoflik tamoyilini kuchaytirish, sun’iy intellektning qaror qabul qilish jarayonini izohlashga qodir mexanizmlarni joriy etish, algoritmik auditni majburiy qilish, shaxsiy ma’lumotlar himoyasini kuchaytirish va yakuniy qarorlar ustidan inson nazoratini saqlab qolish ko‘zda tutiladi. Bundan tashqari, javobgarlikning uch tomonlama bo‘linishi – ishlab chiquvchi, foydalanuvchi tashkilot va nazorat organi o‘rtasida mas’uliyatni aniq taqsimlash zamonaviy huquqiy arxitekturaning ajralmas qismi bo‘lishi zarur. Ma’lumotlar bazasidagi adolatsizlik va noto‘g‘ri ma’lumotlar tufayli yuzaga keladigan diskriminatsiyani kamaytirish uchun esa o‘quv ma’lumotlarini tekshirish, filtrlash va ekspertizadan o‘tkazish mexanizmlari joriy etilishi talab qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt davrida huquqiy tizimning eng asosiy vazifasi – innovatsiyalarni cheklamasdan, ammo inson huquqlarini, shaxsiy hayotni, adolat va tenglik tamoyillarini himoya qilgan holda barqaror tartibga solish mexanizmlarini yaratishdir. Riskka asoslangan yondashuv, shaffoflik, ma’lumotlar sifati, audit va inson nazorati SI texnologiyalaridan xavfsiz foydalanishning asosiy kafolatlari hisoblanadi. Agar huquqiy tizim ushbu tamoyillarga tayangan holda rivojlansa, sun’iy intellekt jamiyat taraqqiyotining kuchli vositasiga aylanadi; aks holda esa u inson huquqlariga xavf tug‘diruvchi omilga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://lex.uz/docs/-7789403
2. https://lex.uz/docs/-7158604
3. https://lex.uz/docs/-7511360
4. https://lex.uz/docs/-7621993
5. https://iapp.org/news/a/china-releases-ai-plus-plan-rolls-out-ai-labeling-law
6. Oxford University — “Paris AI Summit misses opportunity for global governance”. https://www.ox.ac.uk/news/2025-02-14-expert-comment-paris-ai-summit-misses-opportunity-global-ai-governance